



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI  
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR  
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Achilova Xurshida

*Samarqand shahr 54-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**TA'LIM SAMARADORLIGIGA YANGICHA YONDOSHUVDA  
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI MAHORATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lrim samaradorligiga yangicha yondoshgan holda, boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi mahorati yotirilgan.

**Kalit so'zlari.** pedagogik mahorat, o'qituvchi, o'quvchi, dars, zamonaviy pedagogik texnologiyalar

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются навыки учителя начальных классов в организации уроков в начальной школе с новым подходом к эффективности обучения.

**Ключевые слова.** педагогическое мастерство, учитель, ученик, урок, современные педагогические технологии

**Abstract.** In this article, the skills of a primary teacher in the organization of primary school classes are invested in a new way in the effectiveness of Education.

**Keywords.** pedagogical skill, teacher, pupil, lesson, modern pedagogical technologies

Mustaqillik yillarida yurboshimiz rahnamoligida ta'lrim - tarbiya sifati va samaradorligini zamin talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biriga aylandi. Ta'lrim sohasidagi islohotlar ta'lrim muassasalari oldiga bir qator yangi talablarni yuzaga keltirdi. Ularning ehg muhimlaridan biri sifatida ta'lrim-tarbiya jarayoni uchun ehg samarali hisoblangan yangiliklarni



amaliyotga tatbiq etish. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ko'p marotaba zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni albatta o'quv jarayoniga olib kirish zarurligi o'qtirilgan.

O'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishida boshlang'ich ta'lif poydevor hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq ta'lif islohotlarida ushbu bo'g'inga alohida e'tibor qilina boshladi. Yosh avlod hayotidagi o'rni va rolini hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarkibi oliy ma'lumotli, professional mahorarga ega kadrlar bilan to'ldirib borilmoqda. Mana shu asosda xalq ta'lifi vazirligining «Umumta'lif maktablarida boshlang'ich ta'lifning samaradorligini oshirish to'g'risida»gi buyrug'i qabul qilindi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Mana shunday ilg'or tajribali bolajon ustozlarimiz talaygina. Ustoz o'zining har bir darsiga yangicha yondoshib zamonaviy interfaol usullardan foydalanib o'quvchilarning erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib boradigan mashqlardan foydalanib boradi. “Ta'lif sifatining samaradorligiga erishishda o'quvchilar bilan birlilikda ishlash texnologiyasidan foydalanib borish yaxshi samara beradi. Sinfda o'tilayotgan mavzuni ayniqsa “Tarmoqlar”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Rolli o'yin”, “Karusel”, “Idrok xaritasi” kabi interfaol metodlardan foydalanib darslar o'tish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, mustaqil erkin fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, so'zlik lug'atini boyitib borishda katta ta'sirini tekkazadi. Masalan, “Tarmoqlar” metodidan foydalanganda o'quvchilarga topshiriq,

1-qadam: bitta harf beriladi, o'quvchilar shu harfdan boshlanadigan “Ot”so'zlar topib qatosiz, to'g'ri va chirolyi etib yozishlari shart.

O'quvchilar guruhlarda birlashib o'tirib shu narsalarning rasmlarini ham solishlari mumkin. Masalan: “S” harfi.

Sovun, soat, son, sigir, suv, salom, sochiq, soyobon, samolyot, (v.h)

Topshiriqlar har bir darsdan keyin murakkablashib boradi. Masalan, keyingi darsimizda o'quvchilarga rangi qizil, istimol qilinadigan 10 ta narsaning nomini yozish topshirig'I beriladi.

Javob: pomidor, tarbuz, olma, gilos, qulpinoy, qo'roz konfet, jiyda, anor, usum, qizil bolgar burch.(v.h).

O'quvshilar kichik guruhlarda ishlaganda bir-birlarining bilganlarini o'rtoqlashadilar bir-birlariga o'rgatib boradilar. Do'stona munosabat shakllanadi. Dars jarayonida “Rolli o'yin” metodini qo'llaganimizda o'quvshilarning erkin fikrlash qobiliyatları rivojlanadi. Sinfda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarimiz ha'm faol ishtirokchiga aylanadi.

“Karusel” metodida esa o'quvchilar bilimi kengayadi, guruhlar bir-birlarining fikrlarini to'ldirib boradilar. Bu metod ta'sirida o'quvchilarning o'ylash, izlanish, ijod qilish qobiliyatları rivojlanish bilan bir qatorda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, mustaqil fikrlashga o'rganadi, estetik did bilan yondoshuv ko'nikmalari rivojlanadilar.

Boshlang'ich sinflarda 45 daqiqalik dars jarayonida ta'lifi - tarbiyaviy didaktik o'yin mashqlaridan ham foydalanib borish yaxshi samara beradi. Masalan: Darsda «Kuch birlikda» o'yinidan foydalaniladi. Darsning tashkiliy qismida



o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. O'qituvchi tomonidan taxta ikkiga ajratiladi. O'yin e'lon qilinishdan "Savol -javob" metodidan foydalanib guruhlarga o'tilgan mavzu yuzasidan gul barglari maketidagi tarqatma materiallarda savollar beriladi. Savollar javobini berib bo'lgandan keyin chiroyli "Gul buketi" hosil bo'ladi.

1-qadam: Har bir guruhga mavzu beriladi.

Masalan, 1- guruhga "Bahor", 2- guruhga "Navro'z". Har guruhdan bir o'quvchi chiqib, bitta gap yozadi. Ikkinci o'quvchi esa shu gapni mazmunan davom ettiradi. Matn tuzishda sifatlardan foydalanishi aytib o'tiladi. Baholashda matnning mazmunuga, mantiqiy izchilligiga sifatlardan qanchallik foydalanganligiga va imloviy savodxonligiga qaraladi. G'olib guruhga rag'bat kartochkasi beriladi. Matnni daftarlariga yozib olishadi.

Dars jarayonida o'quvchilar "Musobaqa" darslarini chin dildan sevadi, darsga qiziqib ishtirok etadi va sinfdagi o'z guruhiga to'shgan past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga ham jon ta'ni bilan o'rgatishga harakat qiladilar. Har bir guruh a'zolari o'z guruhidagi o'quvchilarning berilgan vazifalarni a'lo darajada bajarishlarini istaydi va shunga harakat qiladi. Sinfda bo'sh o'zlashtiruvchilar soni kamayadi.

3-topshiriq. Bunda o'quvchilarga har xil mevalarning nomi yozilb qirqilgan rangli qog'ozdan mevaning shaklini yasash topshiriladi. Agar mevaning nomini to'g'ri tersa, shakl paydo bo'ladi. Topshiriqni bo'lgach, mevaning rangini, shaklini, ma'za- ta'mini, hajmini, xil- xususiyatini aytishlari lozim. Topshiriqni tez to'g'ri bajargan guruhga rag'bat kartochkasi beriladi.



Baholash. Rag'bat kartochkalar hisoblanadi va g'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantirilib boriladi.

O'quvchini ijodiy izlanishga o'rgatish, tafakkurini shakllantirish uchun eng avvalo o'qituvchining o'zi o'z ustida ishlaydigan, tom ma'nodagi ijodkor bo'lmog'i zarur.

Demak, ta'llim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish o'quvchilarning bilim va taxsil olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, ta'llim – tarbiya jarayonining salmog'i yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Avlayev O.Y., Jo`rayeva S.N., Mirzayeva S.R. "Ta'llim metodlari" T. "Navro'z". 2017
2. Saidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T. «Fan», 2003.
3. G'afforova T. Boshlang`ich ta'llimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.2012 y."Tafakkur "nashriyoti.